

### KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNING XOTIRASINI TEST VA METODIKALAR YORDAMIDA O'RGANISH

*Toshkentijtimoiy innovatsiya universiteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi  
Omonturdiyeva Ozoda Akmal qizi*

**Annotatsiya:** Bolalarning xotirasini o'rganish. Xotirasi sekin rivojlangan bolalar bilan shuğullanish. Xotirani rivojlantirish bo'yicha turli o'yin va texnologiyalardan foydalanish.

**Аннотация:** Изучаем детскую память. Работа с детьми с медленным развитием памяти. Использование различных игр и технологий для развития памяти.

**Annotation:** Studying children's memory. Dealing with children with slow memory development. Use of various games and technologies for memory development.

**Kalit so'zlar:** test, metodika, sanash, farqlash, D.B.Elkonin, kuzatuv, xotira, metod, eksperiment, so'rov, proyektiv metodlar, J.Piaje.

**Ключевые слова:** тест, методология, считать, различать, Д. Б. Эльконин, наблюдение, память, метод, эксперимент, опрос, проективный метод.

**Key words:** test, methodology, counting, differentiation, D. B. Elkonin, observation, memory, method, experiment, survey, projective methods.

Xotira – inson nerv tizimining eng muhim funksiyalaridan biridir. Xotiraning buzilishida inson hayoti davomida diskomfort sezadi va bu jiddiy nevrozlar, depressiyalarga olib keladi. Agar xotiraning buzilishi davom etib ketaversa, insonni mehnat qilish qobiliyatidan mahrum etib, nogironlikka olib keladi. Xotira bilan bog'liq muammolarga hatto bolalar ham duch kelishadi. Bunday muammolarni e'tibordan chetda qoldirish kerak emas, chunki inson kelajakdag'i hayotiy qobiliyatlari xotira bilan chambarchas bog'liq. Bolalar xotirasi pasayganda o'qishdan ortda qoladi, ta'lim olish muassasalariga borgisi kelmaydi, bola asabiy, jaxldor va yig'loqi bo'lib qoladi.

Jarayonni o'tkazib yuborgandan keyin qaytarish qiyin, shuning uchun erta davrlarda davo choralarini ko'rish zarur. Bolalar psixologiyasini kuzatgan psixolog olim D.Elkonin aytganidek; "bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik

davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi".[1]. Dastlab, maktab o'quvchilari eng oddiy usullardan foydalanadilar-materialni uzoq vaqt tekshirish, materialni qismlarga ajratishda takroriy takrorlash, qoida tariqasida, semantik birlklarga to'g'ri kelmaydi. Yodlash natijalarini o'z-o'zini boshqarish tan olish darajasida amalga oshiriladi: masalan, birinchi sinf o'quvchisi matnga qaraydi va

uni yodlaganiga ishonadi, chunki u tanishlik tuyg'usini boshdan kechiradi. 3 va 4-sinf o'quvchilari o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirishda sezilarli va sifatli o'zgarishlarga ega. 3-4-sinf o'quvchilarining o'zini o'zi boshqarishning birinchi o'ziga xos xususiyati shundaki, ular asosan tanib olishga emas, balki ko'paytirishga tayanadi (ular baland ovozda gapishtadi yoki eslab qolganlarini yozadilar).

O'z-o'zini boshqarishning ikkinchi xususiyati shundaki, bu yoshdagi bolalarda u yodlash vazifasiga qarab o'zgaradi va farqlanadi. Ba'zi hollarda maktab o'quvchilari

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

doimiy tekshiruvga murojaat qilishadi va materialni to‘liq takrorlashadi qiyin joylarni va ba’zi tafsilotlarni qanday eslab qolishlarini tekshiradilar. Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich maktabni tugatgunga qadar o‘quvchilarni yodlashda o‘z-o‘zini boshqarish muhim ahamyatga ega.

“Kichik maktab o‘quvchilarining xotirasiga maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasiga nisbatan ko‘proq ongli va uyushgan. Boshlang‘ich maktab yoshida semantik xotiradan ko‘ra vizual-majoziy xotira yanada rivojlangan. Bolalar aniq narsalarni, yuzlarni, faktlarni, ranglarni, voqealarni yaxshiroq eslashadi. Buning sababi shundaki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish paytida juda ko‘p aniq, haqiqiy materiallar beriladi, bu vizual, majoziy xotirani rivojlantirishga yordam beradi”.[2]. Kichik maktab yoshdagi bolalarning xotirasiga juda yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Bolalar shu davrda atrofdagi narsa va xodisalarni xotirasida yaxshi eslab qoladi. Maktabga borgan bolalar ustozlarning aytgan gaplarni yaxshi eslab qoladi. Qanday darslar qaysi fandan qanaqa dars berilgani haqida ham eslab qolishadi. Aksariyat bolalar esa tez unutib qolishadi. Maktab psixologining kuzatuvi ostida bo‘lishadi. Psixolog esa test metodikalar orqali qaysi o‘quvchining xotirasini qay darajada rivojlanganligini aniqlaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning xotirasini o‘rganishning bir qancha usullari bor. Kuzatuv, eksperiment, so‘rov va proyektiv metodikalar orqali bolalarning xotirasini qay darajada ekanligini aniqlasak bo‘ladi.

-kuzatish - psixologik tadqiqotning asosiy empirik metodlaridan biri bo‘lib, psixik hodisalarni maqsadga muvofiq va tizimli ravishda idrok etishga asoslangandir. Bu usul orqali bolaning darlarni qay holatda eslab qolishini o‘rgansak bo‘ladi. Boshqa bolalarning xotirasini bilan solishtirgan holatda.

-eksperiment metodi orqali bolaning faolyat xususiyatlarni aniqlasa bo‘ladi. Uning kuzatuvdan asosiy farqi shundaki eksperimentda o‘rganilayotgan obektda faol ta’sir qiladi ularning manipulyatsiyasini amalga oshiradi. Bola bilan o‘tkazilayotgan eksperiment uzoq davom etmasligi, unga eksperiment jarayonida o‘zgarishlar kiritmaslik kerak. Odatta eksperimentda tadqiqotchidan tashqari eksperiment bayonnomasini to‘ldiruvchi shaxs ham ishtirok etadi.

-so‘rov metodi yordamida bolalarning ularga berilgan savollarga javob berishi hamda o‘zining tuğilgan sana va yillarni xotirasida saqlab qolganni yoki yo‘qligini aniqlasa bo‘ladi. Bunga yana qo‘srimcha tarzda bolaga eng kamida 5 yoki 10 ta so‘z aytib uning esida qolganlarni aytib berishi so‘raladi. Shu orqali ham uning xotirasini yaxshi yoki yomonligini aniqlasak bo‘ladi. Kichik maktab yoshdagi bolalarning xotirasini proyektiv metodikalar orqali aniqlasak bo‘ladi. Buning uchun esa bolalarga har xil rasmlar tushirilgan oq qo‘goz beriladi yoki ko‘rsatiladi. Masalan: faqatgina mevalar rasmlardan iborat bo‘lgan to‘plam bunda necha meva borligini yoki bo‘lmasa qaysi mevalar bor ekanligini aytish so‘raladi. Nechta eslab qolishiga qarab ularning xotira darajalarni bilish oson bo‘ladi. Mevalan soni 12 ta bo‘lsa,

-10 tasi yoki 9 tasi bo‘lsa xotirasi yuqori darajada;

-8 ta yoki 6 ta bo‘lsa xotirasi o‘rtacha;

-5 dan kam bo‘lsa xotirasi past daraja deb belgilansa bo‘ladi.

Bunday metodlardan yana, sanash – xotirani kuchaytirish uchun yaxshi mashq. Bu samarali usul bo‘lib, 1 dan 20 gacha yoki 20 dan 1 gacha bo‘lgan sonlarni parallel ravishda sanash kerak. Masalan: 1, 20, 2, 19, 3, 18 va hokazo. Har kuni ushbu mashqni takrorlab 10 ta songa oshirib boring va 100 gacha yeting. Mashqni uyqudan oldin bajarish ancha samarali bo‘ladi. Agar inson sonlarning boshqa tillardagi talaffuzini bilsa, parallel ravishda o‘z tili va boshqa tilda sonlarni sanash xotirani tiklashga tezroq yordam beradi. Suratga qarab o‘ynaladigan “10 ta farqni top” mashqi xotirani mustahkamlovchi asosiy o‘yinlardan biridir. Buning uchun bolaga yarim daqiqa

suratni tomosha qilishiga qo‘yib bering. So‘ngra ikkinchi suratni ko‘rsating. U rasmlar o‘rtasidagi tafovutni xotirasiga suyangan holda aniqlay boshlaydi.

Umumlashtirib xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak kichik maktab yoshidagi bolaning xotirasini turli tavsiyalar bilan rivojlantirsa bo‘ladi. Bolalarda yomon xotira deyarli bo‘lmaydi, u rivojlanmagan bo‘lishi mumkin va ota-onalar hamda o‘qituvchi turli xil metodlar o‘tkazish bilan bola xotirasini yaxshilash va sinab ko‘rish mumkin. Bolaning aminokislotalarni o‘z ichiga olgan vitaminlarni baliq yog’i, yang’oq kabilar iste’mol qilishi xam xotiraning yaxshilanishiga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi", Z.Nishanova, G.Alimova.
2. M;Toshkent-2006;[4 bet.]
3. Кулагина И.Ю., Колюцкий В.Н. Возрастная психология: Развитие
4. человека от рождения до поздней зрелости. – М.: ТЦ Сфера, 2004. – 464с.